



“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari**

Z. Ziyayev

2024-y. “28” iyun

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “FOYDALI MA’LUMOTLAR” BO‘LIMIDA “ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI KALKULYATORI” INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “Foydali ma’lumotlar” bo‘limida iste’mol narxlari indeksi kalkulyatoridan foydalanish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi haqida axborot.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-sayti.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-saytiga, murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O‘rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichi:

- o'tgan oyga nisbatan;
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan.

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining "Ochiq ma'lumotlar" bo'limida e'lon qilib boriladi.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-81-74.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-81-74.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda info@stat.uz elektron pochtasiga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni oddiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi jadval namunalari.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga murojaat;
Ish tartibi: onlayn rejimda.

3.2. Kutish shartlari

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi kalkulyatoridan foydalanish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Saytning asosiy sahifasi pastki qismidagi "Foydali ma'lumotlar" bo'limini tanlash kerak. Narx indeksini hisoblash uchun qiziqtirayotgan davr tanlanadi.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Har oy uchun iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini shakllantirish;
2. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilish.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini agentlik saytida yangilab boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "Foydali ma'lumotlar" bo'limida iste'mol narxlari indeksi kalkulyatoriga kirib, qiziqtirayotgan davrni tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan davr bo'yicha jadval ma'lumotlarini Excel yoki PDF formatida yuklab oladi.	Real vaqt rejimida